

DERMATOVENEROLOGIYA FANINI KLINIK -  
DIAGNOSTIK PEDAGOGIK METODLAR ASOSIDA O'QITISHNING  
XORIJIY TAJRIBALARI TAHLILI

**Batirov Kamoliddin Zuhriddinovich**

*Andijon davlat tibbiyot instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dermatovenerologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning analitik tahlil kompetensiyasini rivojlantirish uchun klinik-diagnostik pedagogik metodlarning samaradorligi o'rganiladi. Mamlakatimizda tibbiyot ta'limining yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdagi ahamiyati ortib borayotgan bir paytda, analitik fikrlash va tahliliy kompetensiya bo'lajak shifokorlar uchun muhim kasbiy ko'nikmalar sirasiga kiradi. Tadqiqotda dermatovenerologiya fanining o'qitilishida klinik-diagnostik metodlar, ya'ni bemorlarni klinik ko'rikdan o'tkazish, diagnostik masalalarni yechish, amaliy mashg'ulotlar va simulyatsiyalar orqali talabalarni o'quv jarayoniga jalb qilish usullari chuqur tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** dermatovenerologiya, innovatsion yondashuvlar, tibbiy ta'lim, kasbiy ko'nikmalar, klinik fikrlash, simulyatsiya, interaktiv usullar, pedagogik texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlar, nazariy ta'lim, kompetensiya, talabalarning motivatsiyasi dermatovenerologiya, tibbiy ta'lim, analitik tahlil kompetensiyasi, klinik-diagnostik pedagogik metodlar, interaktiv o'qitish, simulyatsiya mashg'ulotlari, amaliy ko'nikmalar, tahliliy fikrlash, o'quv jarayoni, tibbiy diagnostika, mutaxassis tayyorlash, tibbiyot pedagogikasi, kasbiy kompetensiya.

**Abstract:** This article examines the effectiveness of clinical-diagnostic pedagogical methods in developing students' analytical thinking competence during the teaching process of dermatovenerology. As the importance of training highly qualified specialists in medical education increases in our country, analytical thinking and analytical competence are considered essential professional skills for future doctors. The research analyzes the application of clinical-diagnostic methods in teaching dermatovenerology, such as conducting clinical examinations of patients, solving diagnostic problems, and involving students in the learning process through practical exercises and simulations

**Keywords:** dermatovenerology, medical education, analytical thinking competence, clinical-diagnostic pedagogical methods, interactive teaching, simulation exercises, practical skills, analytical reasoning, educational process, medical diagnostics, professional training, medical pedagogy, professional competence.

Bugungi kun zamonaviy tibbiy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z sohasi ustida izlanishlanish olib boradigan, kasbiy faoliyatiga yangi g'oyalarni olib kiradigan shaxsni tayyorlashdan iboratdir. Demak, har tomonlama rivojlangan tibbiyot xodimlarini

tayyorlashda analitik tahlil kompetentligi darajasi yuqori bo'lishi talab qilinadi. Bugungi kun shifokori faoliyat jarayonida innovatsiyalarni, yangi metodikalarni tadbiq etish va analitik kompetentlilik sifatini oshirish - ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim hisoblanadi.

Dermatovenerologiya fani tibbiyot sohasining eng murakkab va muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bemorlarni tashxislash va davolashda yuqori malakali shifokorlarni tayyorlashni talab qiladi. Shuning uchun, dermatovenerologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash muhimdir. Xorijda dermatovenerologiya ta'limini o'rgatishda klinik-diagnostik pedagogik metodlar keng qo'llaniladi, chunki bu metodlar talabalarni real klinik vaziyatlarda mustaqil tahlil qilishga va to'g'ri qarorlar qabul qilishga o'rgatadi [1].

Xorijiy tajribalarga ko'ra, dermatovenerologiya fanini o'qitishda quyidagi asosiy pedagogik yondashuvlar qo'llaniladi:

1. Simulyatsiya va interaktiv o'qitish metodlari: Amerika, Germaniya va Shveysariyada dermatovenerologiya ta'limida simulyatsiyalar orqali talabalarga murakkab klinik holatlar va tashxislarni amaliy ravishda yechish imkoniyati yaratiladi. Talabalar bemorlarning hujjatlarini ko'rib, ularning kasallik tarixini o'rganib, tashxis qo'yish va davolash rejasini tuzishda ishtirok etadilar. Bu metod talabalarni real klinik sharoitlarda faol ishtirok etishga undaydi va ularning analitik tafakkurini rivojlantiradi [2].

2. Amaliy mashg'ulotlar va klinik ko'riklar: Britaniya va Kanadada dermatovenerologiya ta'limi amaliy mashg'ulotlar va klinik ko'riklar orqali amalga oshiriladi. Talabalar klinik shifoxonalarda, dermatologik poliklinikalarda bemorlarni ko'rikdan o'tkazishadi, tashxis qo'yadilar va davolashning samarali usullarini amalda sinab ko'radilar. Shuningdek, talabalarga murakkab dermatovenerologik kasalliklarni tahlil qilish va davolashni o'rgatish maqsadida, o'zaro maslahatlar, guruhiy muhokamalar va tibbiy holatlar bo'yicha simulyatsiya mashg'ulotlari olib boriladi [3].

3. Klinik tadqiqotlar va ilmiy faoliyat: Xorijda dermatovenerologiya bo'yicha o'qitish nafaqat diagnostika va davolashni, balki ilmiy tadqiqotlarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, Niderlandiya va Shvetsiyada dermatovenerologiya fakultetlari talabalari ilmiy tadqiqotlarga jalb qilinadi, ularning natijalari esa dermatovenerologik amaliyotga qo'llanilishi uchun yaroqli bo'ladi. Bu metod talabalar uchun amaliy bilimlarni ilmiy izlanishlar bilan bog'lash imkoniyatini yaratadi [4].

4. Texnologiyalarni qo'llash: Xitoy va Janubiy Koreyada dermatovenerologiya ta'limida innovatsion texnologiyalar, masalan, tibbiy simulyatorlar, elektron resurslar va onlayn ta'lim platformalari keng qo'llaniladi. Bu yondashuvlar talabalarga klinik tajribalarni virtual muhitda olish, va real bemorlarni ko'rib chiqish imkoniyatini taqdim etadi. Onlayn ta'lim va interaktiv dasturlar orqali talabalar dermatovenerologiya faniga oid nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlashadi [5].

Taniqli tadqiqotchi L.Jonsonning fikriga tayangan holda, shifokorning "analitik faoliyati" aniq struktur komponentlardan iborat ekanini ta'kidlash kerak. Klinik-diagnostik

pedagogik metodlar asosida rivojlantiriladigan analitik kompetensiya faoliyati quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) shaxsdagi analitik kompetensiyaning predmeti;
- 2) klinik-diagnostik motivlar – munosabatlarning amalga oshirilishi;
- 3) analitik kompetensiyaning vazifalari – maqsadga erishish uchun munosabat jarayonida amalga oshirish harakatlari;
- 4) klinik-diagnostik pedagogik metodlar asosida rivojlantiriladigan analitik kompetensiyaning mahsuli – munosabat natijasida yaratiluvchi ma'naviy va moddiy xarakterning hosil bo'lishi;
- 5) munosabatga bo'lgan ehtiyoj talabaning bilishga bo'lgan intilishidan va boshqalarni baholashdan iborat, ular orqali va ular yordamida – o'z-o'zini bilish va o'ziga o'zi baho berishi;
- 6) klinik-diagnostik pedagogik metodlar asosida rivojlantiriladigan analitik kompetensiyaning harakatlari – boshqa insonga yo'llanilgan bir butun jarayon bo'lib, munosabat harakatlarining ikkita asosiy – tashabbusli va javobli kategoriyalarga ega;
- 7) klinik-diagnostik pedagogik metodlar asosida rivojlantiriladigan analitik kompetensiya vositalari bu – munosabat jarayonlari bo'lib, ular yordamida munosabat harakatlari amalga oshiriladi [6].

L.Martinez va boshqalarning fikricha, vaziyat “o'quv jarayonini ishlashning universal shakli bo'lib, nutq vositalarini tashkillash usuli, ularni prezentatsiya qilish usuli, nutqiy faoliyatni asoslash usuli, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish va nutqiy qobiliyatni rivojlantirish sharti” hisoblanadi, vaziyatlilik prinsipi esa, yetakchilaridan biri bo'lib, u ta'limni munosabat uchun tabiiy sharoitlarda tashkil qilish zaruratini ko'rsatadi [7].

Xorijiy tajribalarga asoslanib, dermatovenerologiya fanini o'qitishda klinik-diagnostik pedagogik metodlarni qo'llash talabalar uchun nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki real klinik sharoitlarda mustaqil fikrlash va samarali qarorlar qabul qilishni o'rgatishga xizmat qiladi. Bu metodlar talabalarning klinik ko'nikmalarini oshirish, analitik tafakkurlarini rivojlantirish va dermatovenerologiya sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tajriba asosida, ushbu pedagogik yondashuvlarni milliy ta'lim tizimida ham joriy etish, tibbiy ta'limni sifat jihatidan yaxshilashga xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Komilov N. Oliy tibbiy ta'limning umumiy tendensiyalari va qonuniyatlarini rivojlantirishda tibbiyot tarixi fanining o'rni // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2023, №9. – bb.770–774.
2. Komilov N. Instructional potential of teaching the history of medicine to international students in higher medical education institutions // Modern Scientific Research International Scientific Journal, 2025, Vol. 4, № 1. -P.71-75.

3. Komilov N. Teaching history of medicine to foreign students is a vital factor of pedagogy // World of Scientific news in Science. No. 3/2. 2024. -R.51-55.

4. Komilov N. The concept of forming the exclusive competence of foreign students by teaching the history of medicine through the “Connect-extend-challenge model” // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2023, №10. –pp.781–787.

5. Komilov N. The role of the history of medicine in the development of general trends and patterns of higher medical education // Scientific Bulletin of Namangan State University, 2023, No. 9. – P.770–774

6. Komilov N. Modern tendencies of teaching history of medicine in higher medical educational institutions and their analysis // Solution of social problems in management and economy. International scientific online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8154487>. - Spain, 2023. – P. 17–21.

7. Johnson, L. Clinical Diagnostics and Analytical Thinking in Dermatology Education: A New Pedagogical Approach. PhD Dissertation, 2022.Stanford University, USA. -P.265.

8. Martínez, L., & García, F. Enhancing Clinical Analytical Skills in Dermatology Education: A Pedagogical Approach // Spanish Journal of Medical Education, № 45(2), - P.137-148.